# JAHOLATGA QARSHI MA’RIFAT BILAN



JAHOLATGA QARSHI MA’RIFAT BILAN

Surxondaryoda Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, Musulmonlar idorasi hamda viloyatdagi diniy-ma’rifiy soha xodimlari tomonidan davlat tashkilotlari, keng jamoatchilik vakillari hamda yoshlar ishtirokida “Jaholatga qarshi ma’rifat bilan” mavzusida o‘tkazilayotgan davra suhbatlari davom etmoqda.

Xususan, bugun Sariosiyo tumani madaniyat markazi hamda hududdagi qator umumta’lim maktablarida o‘tkazilgan tadbirlarda so‘zga chiqqan soha xodimlari yoshlar ongida va qalbida mafkuraviy, ma’naviy immunitetni kuchaytirish muhim ekanligini ta’kidladilar.

Image not found or type unknown

Kamil insonni, sogʻlom avlodni tarbiyalash uchun gʻoyaviy boʻshliqqa yoʻl qoʻymaslik, boʻshliq oʻrnini vayronkor va buzgʻuncha yot gʻoyalar egallashining oldini olish uchun esa faqat oʻqish, ilm oʻrganish joizligi davra suhbatlarida asosli tarzda tushuntirildi.

Image not found or type unknown